



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI FANINI O‘QITISHDAGI DARSLIKLARNING AHAMIYATI

Allabergenova Muqaddas Turayevna

*Nukus davlat pedagogika institutining Sirtqi bo‘lim boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi
5-kurs talabasi*

allabergenovamuqaddas1@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15080063>

Annotatsiya. *Boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitish bolalarning nutq madaniyatini shakllantirish, yozuv malakalarini rivojlantirish hamda yozma va og‘zaki fikrlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *So‘zlarni anglab, tushunib, chiroyli va xatosiz yozish malakarini shakllantirish, o‘z fikrlarini yozma bayon eta olish.*

Har bir xalqning, millatning ertangi kuni o‘z kelayotgan yosh avlodning bugun qanday ta‘lim-tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo‘lib yetishishlariga bog‘liq. Bunday mas‘uliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o‘qituvchisi, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan o‘z kasbiy mahoratlarini oshirib borish, ilg‘or pedagogik texnologiyalar mohiyatini anglash va ulardan o‘z darslarida unumli foydalanishni taqozo etadi. Zamonaviy o‘qituvchi ta‘lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni puxta egallagan, ularni tahlil qilish va amaliyotga joriy eta olishi lozim. Boshlang‘ich sinfda ona tili ta‘limi o‘quvchilarda tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘z g‘alalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a‘zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ona tili darslari ijtimoiy-foydali bo‘lishi uchun o‘quvchilarda o‘z fikrini grammatik to‘g‘ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini tinglay olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o‘stirish ko‘rsatmasi grammatik materialni o‘rgatishda o‘quvchilarning tilimizdagi har bir so‘z turkumi yoki so‘z qismining rolini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo‘llashni talab etadi, ya‘ni grammatik nazariya grammatik to‘g‘ri va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini o‘stirishga, amalda tatbiq etish uchun o‘rgatiladi. Darsda o‘quvchilar nutqini o‘stirish darsning mazmunida va qo‘llanilgan vazifalar turlarida o‘z aksini topadi.

Bu vazifalarni amalga oshirish ko‘p jihatdan o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Axborot oqimi keskin ortgan, turli yangiliklar hayotimizga shitob bilan kirib kelayotgan davrda mustaqil tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, yangilikni o‘rganishga doim tayyor bo‘lgan, hamkorlikdan cho‘chimaydigan, muloqotga erkin



kirisha oladigan shaxsni tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi bo'lishi kerak va bu borada ta'limda yangi texnologiyalarning qo'llanishiga yo'l ochilishi maqsadga erishish yo'lidagi to'g'ri qadamdir. Hozirgi kunda yangi texnologiya unsuri bo'lgan interfaol usullardan keng foydalanish, darsda o'quvchilarning faolligini oshirish va fikrlash orqali o'zlashtirishlarni ta'minlash maqsadida multimediali ilovalar tayyorlandi. Ularda o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga, til ma'nolarini to'g'ri anglashlariga, og'zaki va yozma nutqlarining savodli bo'lishiga, Vatanimizning mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti, o'tmishi, milliy urf-odatlarini, borliq va jamiyat haqidagi mavjud bilimlarini yanada boyitish maqsad qilib olindi. Bu maqsadni amalga oshirishda turli metodlardan va metodik ish turlaridan foydalaniladi. Ular o'quvchilarni o'ylashga, izlanishga, xulosalar chigarishga undaydi, ona tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. [1:3]

Ona tilidan tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlar o'quvchini izlanishga, ijodiy faoliyat yuritishga, o'rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini aniqlab, hukm va xulosalar chiqarishga undaydi. Ta'limiy o'yinlar har bir o'quvchiga o'zini namoyish etish, o'z fikr-mulohazalarini himoya qilish, topshiriqni shavq-u zavq bilan bajarish imkoniyatini beradi. Har bir shaxsda tarbiyalanishi zarur bo'lgan ijobiy sifatlar: tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, hushyorlik, qat'iyatlik, bilimdonlik, mustaqillik, tadbirkorlik, ijodkorlik kabilar tarkib toptiriladi.

Ona tili darslarining samaradorligini oshirish, unda o'quvchilarni faollashtiradigan, mantiqiy fikrlashga undaydigan metod va usullarni, mashqlar tizimini ishlab chiqish, matnni lingvistik tahlili dolzarb masalalardan biridir. Asosiy mavzular bosqichli izchillik tamoyiliga asoslanib, har to'rt sinfda o'rganiladi. Har bir sinfda yetakchi mavzular ajratiladi. 1-2-sinfda fonetika va grafikaga oid mavzularni o'rganishga katta o'rin beriladi, chunki o'quvchilar o'qish va yozish jarayonini egallaydilar. O'zbek tili yozuvi tovush yozuvi hisoblanadi, chunki tovush yozuvda harflar bilan ifodalanadi. 2-sinf o'quvchilari fonetik-grafik ko'nikmalar tizimini hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, jufti yo'q jarangli vajarangsiz undoshlar; yozilishi talaffuzidan farq qiladigan so'zlarni va so'zdagi jarangsiz undosh tovush o'ziga mos harf bilan ifodalanishini taqqoslash bilan so'zning oxirida jufti bor undosh tovush kelsa, u so'z tekshirishni talab qilish; so'zni bo'g'inlarga bo'lish, urg'uli bo'g'inni ajratish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Dasturga ko'ra, o'quvchilarda so'zni bo'g'inlarga bo'lish ko'nikmasini shakllantirish vazifasi talab etiladi. Bo'g'in murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda uning qoidasi berilmaydi. O'quvchilar so'zni bo'g'inlarga bo'lishda so'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi, degan



tushunchaga asoslanadilar. Bu tushunchani ular savod o‘rgatish davridayoq hosil qiladilar. O‘quvchilar yozilgan so‘zdan dastlab unli harfni topadilar, keyin so‘zda nechta unli bo‘lsa, uni shuncha qism (bo‘g‘in)ga bo‘ladilar. Bo‘g‘in haqidagi bilim so‘zning bir yo‘lga sig‘magan qismini bo‘g‘inlab to‘g‘ri ko‘chirish ko‘nikmasini shakllantirishga asos bo‘ladi.

Ona tili fani o‘quvchilarni fikr bayon qilish va uni uqib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro‘yobga chiqadi, shu sababli har bir kishi tilni va undan foydalanishni bilishi zarur. Tilni bilish uning grammatik qonun-qoidalarini, ta‘rifini o‘zlashtiribgina emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilish hamdir, ya‘ni fikrni og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug‘at ustida ishlashga alohida e‘tibor qaratish lozim. Birinchi sinfda o‘tilganlar yuzasidan takrorlash. O‘quv yilining boshi birinchi sinfda o‘quvchilarninig ona tilidan olgan bilimlarini aniqlash va umumlashtirish maqsadini amalga oshiradi.

Bunda gap tugallangan fikrni anglatishi, gaplar so‘zlardan tuzilishi, gapning mazmuniga ko‘ra tinish belgilarini qo‘yilishi va har bir gap bosh harf bilan boshlanishi va so‘zni tovush-harf tarkibiga oid bilimlar takrorlanadi. Ikkinchi sinf o‘quvchilariga tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, ularning harfiy ifodasi; bo‘g‘in, jarangli va jarangsiz undosh tovushlar haqida tushunchalar beriladi. O‘quvchilar shu bilimlar asosida aytilishi va yozilishida farq qiladigan so‘zlar; a va o, u va i tovushli so‘zlarning aytilishi va yozilishi; so‘z oxirida kelgan jarangli b va d undoshlarining jarangsiz jufti p va t undoshi tarzida eshitilsa ham b va d tarzida yozilishi; ayrim so‘zlar oxirida kelgan d va t undoshlarining tushib qolishi, ammo yozuvda saqlanishi; yonma-yon kelgan ikki bir xil undoshli so‘zlarning aytilishi va yozilishini bilib oladilar. So‘zlarni tovush-harf tomondan tahlil qilish rivojlanadi, o‘quvchilarda nutqni eshita olish qobiliyatini o‘stirishga e‘tibor beriladi. Bular o‘z navbatida ularning savodxonligini oshiradi, xatosiz ko‘chirib yozish, eshitib yozish, yozganlarini mustaqil tekshirish ko‘nikmalarini o‘stiradi. O‘quvchilarda tovush haqida to‘g‘ri ilmiy tasavvur amaliy mashqlar yordamida hosil qilinadi. Bunda yetakchi usul so‘zdagi tovushlarning talaffuzi hamda so‘zning leksik ma‘nosi so‘zdagi tovushlarning tarkibiga bog‘liqligi ustida kuzatish hisoblanadi. Masalan, aka, uka, opa, ona, ota, kul, gul, qora, qara, uzun, uzuk, uzum kabi bir unli yoki bir undosh bilan farqlanadigan so‘zlar har xil lug‘aviy ma‘noni ifodalaydi.

Tovushlar va harflar yuzasidan olib boriladigan ishlar kichik yoshdagi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq madaniyatini o‘stirish va takomillashtirishga yo‘naltiriladi. "Tovushlar va harflar" mavzusini o‘rganish bilan o‘quvchilarning



nutqiy va aqliy rivojida eng muhim bo‘lgan so‘zlarni tahlil qilish, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy ko‘nikmalari shakllantiriladi. Mavzularni takrorlab umumlashtirish darslarida o‘quvchilarning lug‘atini boyitishga, bog‘lanishli nutqni o‘stirishga ham alohida ahamiyat beriladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish hisoblanadi. Sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar amaliy o‘rganiladigan va nazariy o‘rganiladigan bilimlarga bo‘linadi. Sintaksisga oid bilimlarni amaliy o‘rganish savod o‘rgatish davridayoq boshlanadi va 3-sinfda ham davom ettiriladi. «Gap», «Darak gap», «So‘roq gap», «Buyruq gap», «His-hayajon gap», «Gap bo‘laklari» mavzulari nazariy o‘rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajariladi. 3-sinfda o‘quvchilar gapni amaliy o‘rganishdan tushuncha sifatida o‘rganishga o‘tadilar. Ular gapning muhim belgilarni bilib oladilar Bu bosqichda bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning ta‘rifi, ega va kesim atamaları kiritiladi. Bu sinfda gapda so‘zlarning bog‘lanishiga katta e‘tibor beriladi. O‘quvchilar gapning asosi (ega va kesim)ni ajratadilar, ikkinchi darajali bo‘laklarni farqlaydilar va gapdagi ikki so‘z (hokim va tobe so‘z)ni, so‘zlarning grammatik jihatdan, ya‘ni qo‘shimchalar orqali bog‘lanishini bilib oladilar.

O‘quvchilarda to‘g‘ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o‘zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, so‘z yasashiga oid materiallarni ma‘lum darajada bilmasdan turib o‘zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo‘ladigan grammatik nazariyaga bog‘liq holda o‘rganiladi.

Ona tili darslarida o‘tkaziladigan insholar o‘quvchilar nutqini o‘stirish, savodxonligini oshirish bilan bog‘liq holda olib boriladi. Inshoda fikrning ravon va savodli ifodalanishiga ahamiyat beriladi. Bu sinfda insho yuzasidan ko‘pincha jamoa bo‘lib ish olib boriladi. Inshoning rejasi o‘qituvchi rahbarligida tuziladi. Reja fikrni izchil bayon qilish, uni qanday boshlash, qanday davom ettirish va yakunlashda o‘quvchiga yordam beradi. [2:6]

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda ona tili darsliklarining o‘rni beqiyos bo‘lib, ular o‘quvchilarning nutqiy, mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar yordamida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, to‘g‘ri yozish va og‘zaki nutq malakalari shakllantiriladi. Ona tili darslari orqali bolalar til boyligini oshirib, o‘z fikrlarini aniq va izchil ifodalash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.



Adabiyotlar:

1. Ona tili [Matn]: 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / U. Masharipova, M. Umarova, D. Bayzarova, M. Nabiyeva [va boshq.]. - T.: «Sharq», 2015. – 3-4 b.
2. Ona tili [Matn]: 3-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / U. Masharipova, M. Umarova, D. Bayzarova, M. Nabiyeva [va boshq.]. - T.: «Sharq», 2016. – 6-7 b.